

## O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARI VA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYA FANINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Namangan davlat pedagogika instituti  
Aniq fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi Sh. Tursunova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari haqida fikr yuritilgan

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, professional ta'lim, infratuzilma, tadbirkorlik, intellektual mulk, innovatsiya, imidj, gnoseologik, psixologik, didaktik, sotsiologik, kibernetik qonuniyatlar

«Texnologiya» fani boshqa o'quv fanlaridan o'quvchilarning muayyan ishlab chiqarish sohalari bo'yicha bilimi, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi yagona o'quv fani sifatida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. «Texnologiya» fani mashg'ulotlari maxsus sinf xonalarida, o'quv-tajriba maydonida, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida, ishlab chiqarish korxonalarida, hunarmandchilik ustaxonalarida olib boriladi

Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni turli sohalarini tubdan o'zgartirdi. SHU bilan birga katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetentsiyalarining iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolari, oliy ma'lumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imidjiga zarur miqdordagi investitsiyalarning sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o'rta bo'g'in rahbar va xodimlarning past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag'batning yo'qligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro'sining tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, AQSH, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida texnologik ta'lim tizimi ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Texnologik ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari,

ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Pedagogik faoliyatida:**

umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanlaridan, o'rta maxsus, kasb-hunar va professional ta'lim muassasalarida kasbiy fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va professional ta'lim muassalaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;

professional ta'lim muassasalarida o'quv ustasi bo'lib ishlash;

kasbiy ta'lim o'qituvchisi mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

pedagogika va texnika fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ishlash;

mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak

ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg'unligiga erishish;

ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

talabalarning kreativ salohiyatni ta'lim tizimni axborotlantirish jarayonida shakllantirish va rivojlantirish;

ta'lim menejmenti bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish.

### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot hurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

ta'limda yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Pedagog olimlar va tadqiqotchilarning tasniflari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muhitida tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarning yo'nalishlariga muvofiq, ta'lim tizimlari oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tadbirkorlik ko'nikmalarini tizimlashtirish imkonini beradi. Xozigi davrda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilaridan umumiy o'rta ta'lim

maktablari o'quvchilarida "startap" madaniyati tizimi, tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda o'quvchi yoshlar orasida targ'ib qilish maqsadida maktablarda master-klass, treninglar o'tkazishni sifatli tashkil etish kompetensiyalari talab etiladi.

Ushbu muammo yechim ilmiy xodimlar hamda ilg'or tajribali amaliyotchi o'qituvchilar fikr mulohazalari, tavsiya va takliflarini inobatga olgan holda yaratilgan ta'lim muhiti bo'lib, texnologiya fani o'qituvchilari, maktablar rahbarlari, metodist va sinf rahbarlari uchun mo'ljallangan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida "startap" madaniyati tizimi, tadbirkorlik ko'nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda o'quvchi yoshlar orasida targ'ib qilishga mo'ljallangan o'quv-metodik resurslarni ijodiy yondashgan holda tayyorlab qo'llash orqali amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. **Tursunova SH.B.** O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kreativ muloqot omillari T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti "Uzluksiz ta'lim" ilmiy uslubiy jurnal 2021 yil Maxsus son 80-83 betlar (13.00.00№ 9)
2. **Tursunova SH.B.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish academic research in educational sciences volume 2 | issue 6 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723 academic research, uzbekistan 824 [www.ares.uz](http://www.ares.uz)
3. **Tursunova SH.B.** Pedagogik kompetentlik va uni samarali rivojlantirish "Science and education" scientific journal march 2021 / volume 2 issue 3
4. **Tursunova SH.B.** "Characteristics of the future technological education" "JournalNX" – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN: 2581-4230 Impact factor 7.223. 34-36 betlar